MINGO‘RIK YODGORLIGI: TOSHKENT VOHASINING QADIMIY MADANIY MARKAZI

O‘zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyining Muzey buyumlari va fond to‘plamlarini qayd etish va ro‘yxatga olish bo‘limi mudiri:
G’afurova Kamola Mirsaliyevna
Marketing va turizm bo‘lim mudiri:
Usanova Umida Ubaydulla qizi
Noshirlik ishlari va axborot texnalogiyalarini joriy qilish bo‘limi Yetakchi mutaxassis:
Xalilova Yasmina Ravshan qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Mingo‘rik tepaligi Toshkentning eng qadimiy shahar markazlaridan biri bo‘lib, I-XIII asrlarda mavjud bo‘lgan qadimgi Choch davlatining siyosiy, madaniy va iqtisodiy hayotini yoritadi. Arxeologik tadqiqotlar bu hududda turar joylar, mudofaa devorlari, hunarmandchilik ustaxonalari, diniy inshootlar va savdo aloqalari yuqori darajada rivojlanganini ko‘rsatadi.*

Annotation: *In this article The Mingo‘rik site represents one of the oldest urban centers of Tashkent, containing cultural layers from the 1st to the 13th centuries. Archaeological research reveals well-developed fortifications, residential quarters, craft workshops, religious structures, and extensive trade networks of ancient Chach.*

Аннотация: *В этой статье Мингўрик — один из древнейших городских центров Ташкента, существовавший с I по XIII века. Археологические исследования показали наличие жилых кварталов, оборонительных стен, ремесленных мастерских, культовых сооружений и развитых торговых связей древнего Чача.*

Kalit so‘zlar: *Mingo‘rik tepaligi, qadimgi Toshkent tarixi, Choch davlati, arxeologik qazishmalar, shahriston va ark, mudofaa devorlari, hunarmandchilik, savdo aloqalari,*

Ключевые слова: *Тепелище Мингўрик, древний Ташкент, государство Чач, археологические раскопки, шахристан и арк, оборонительные стены, ремесленничество, торговые связи.*

Key words: *Mingurik hillfort, ancient Tashkent, Chach state, archaeological excavations, citadel and shahristan, defensive walls, craftsmanship, trade networks.*

Toshkentning qadimiy tarixi nihoyatda uzoq davrlarga borib taqaladi. Bu hududda joylashgan eng mashhur yodgorliklardan biri - Mingo‘rik tepaligi qadimgi shahar xarobalarining izlarini o‘zida mujassam etadi. Mingo‘rik yoki ba’zan “Afrosiyob tepaligi” deb ataladigan bu manzilgoh I-XIII asrlarda mavjud bo‘lgan shahar qoldiqlarini o‘z ichiga oladi. Ilgari bu yerda arkka yondoshgan minoraqasr hamda katta shahriston bo‘lgan. Hozirgi temir yo‘l vokzali yonida, Salor kanalining bo‘yida joylashgan hudud XIX asrgacha zich o‘rikzor bilan qoplanganligi bois “Mingo‘rik” nomi shu tariqa shakllangan. Shahar qurilishi jarayonlarida madaniy qatlamning katta qismi buzilgan bo‘lsa-da, uning ayrim segmentlari hozirgacha saqlanib qolgan.

Bu yodgorlik haqida ilk ilmiy qaydlar 1896-yilda Smirnov va Likoshin tomonidan, keyin esa 1912-yilda Dobrosmislov boshchiligidagi Turkiston arxeologiya havaskorlari tomonidan keltirilgan. XX asrning boshlarida Mikhail Masson mazkur hududda arxeologik tekshiruvlar olib borgan. Keyinchalik Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi tomonidan muntazam qazish ishlari yo‘lga qo‘yilib, shahriston (15 gektar) hamda ark (0,5 gektar) maydonlarining tuzilishi aniqlashtirildi. Tadqiqotlar natijasida Toshkent shahar hayotining 3 asosiy bosqichi qayd etildi. Birinchi bosqich eramizning I-IV asrlariga mansub bo‘lib, bu davrda ichki turar joy zonasini himoya qiluvchi uzun yo‘lakli,

qo‘shqator mudofaa devorlari mavjud bo‘lgan. Devor tashqarisiga to‘rtburchak burjlar o‘rnatilgan va ularning orasidagi masofa taxminan 12 metrni tashkil qilgan. Keyingi bosqich, V-VI asrlarda shahar jadal o‘sish davriga kirib, aholi soni keskin oshgan. Shu sababli mustahkam ark va keng shahriston barpo etilib, Chochning eng yirik siyosiy va madaniy markaziga aylangan. Arab manbalarida tilga olinadigan "Madinat ash-Shosh" aynan shu yodgorlik bilan bog‘lanadi.

Uchinchi bosqich – VII-VIII asrlarda shahar eng rivojlangan davrini boshidan kechirgan. Bu davrda qurilish an’analari takomillashgan, devoriy bezaklar va nafis naqshlar keng qo‘llanilgan. Uy-ro‘zg‘or buyumlari ham Sug‘d, Farg‘ona va O‘rta Osiyoning boshqa madaniy hududlari bilan munosabatlar yuqori darajada bo‘lganini isbotlaydi. Shahar hayotida ko‘chmanchi qabilalar ta’siri ham sezilarli bo‘lgan. Aholi ko‘payib borishi natijasida eski qal’a devorlari torlik qila boshlagan va ularning o‘rnida Choch hukmdorlariga tegishli bo‘lgan ulkan saroy majmuasi qurilgan. Saroy ichida hashamatli xonalar, naqshinkor ustunlar hamda qo‘shimcha xo‘jalik xonalari mavjud bo‘lgan. Bu davrda Choch Turk xoqonligi siyosiy ta’sirida bo‘lgan va yozma manbalarda musiqiy san’atning yuksak darajada rivojlangani qayd etiladi. VIII asr boshlarida Arab xalifaligi qo‘shinlari Choch poytaxtini vayron qilib, shahar xarobalarga aylantiriladi. X asrda Mingo‘rikning faqat bir qismida hayot qayta tiklangan bo‘lsa-da, XIII asrga kelib bu ham tugaydi. Markaz esa Binkatga ko‘chirilgan.

Hozirgi Amir Temur maydoniga tutash bo‘lgan markaziy ko‘chalardan birida Ming O‘rik deb ataluvchi tepalik qad rostlagan. Aslida bu joy Turk xoqonligi davridagi Choch poytaxtining qal’a qoldiqlaridir. Arxeologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu hudud arablar kelishidan ancha ilgari, eramizning birinchi asrlarida shakllangan. XIX asrning oxiridan boshlab olimlar ushbu hududni o‘rganishga kirishishgan va bu joy qadimgi turkiy hukmdorlarning qarorgohi bo‘lganini ilmiy asoslab berishgan. Qadimiy



xonalarning joylashuvi, qurilish tarhi hamda uslublar bu yerda ibodatxonalar, ochiq qurbongohlar bo‘lganidan dalolat beradi. Xitoy manbalarida Toshkentning ildizlari Qang‘ davlatiga borib taqalishi aytiladi. Qang‘ parchalangandan keyin bu hudud mustaqil davlat sifatida rivojlangan va Ming O‘rik, Konka, Shoshtepa kabi shaharlar poytaxtning urbanizatsiya tarixidan guvohlik beradi. Toshkentning qadimgi sug‘orish tizimi - Qorasuv, Salor va Jo‘nariq tarmoqlari bo‘ylab rivojlangan. Qadimiy «Bandi podshoh» to‘g‘oni esa bu ikki anhorga yil bo‘yi suv yetkazib turadigan muhim inshoot bo‘lgan. XIX asrning ikkinchi yarmida Mingo‘rik tepaligi asta-sekin buzib tashlangan, uning tuprog‘i esa yangi shahar qurilishi uchun ishlatilgan. Tepalikdan topilgan qadimiy g‘isht, sopol idishlar, tangalar va boshqa buyumlar o‘sha davr rus havaskor arxeologlari tomonidan qayd qilingan. Mingo‘rik shaharliklar orasida “Afrosiyob tepaligi” nomi bilan mashhur bo‘lib, uni Turon afsonaviy shohi Afrosiyob bilan bog‘lash keng tarqalgan edi. Ammo Afrosiyob tarixiy shaxs emas - u turkiy afsonalarda yurt qurgan, dushmanlarga qarshi kurashgan qahramon hukmdor sifatida tilga olin adi. Afsuski, zamonaviy Toshkent qurilishi davrida Mingo‘rik yodgorligining katta qismi butkul yo‘qolgan. Faqat “Sharq” mebel fabrikasi hududida joylashgan 100x40 metrli kichik tepalikgina saqlanib qolgan. Yodgorlikning aksariyat madaniy qatlamlari yer ostida qolib ketgani bois, to‘liq arxeologik tadqiqot o‘tkazish imkoniyati yo‘q. Shu sababli Toshkentning qadimgi tarixini tushunishda arxeologlar asosiy tadqiqotlarni Shoshtepa hududida olib bormoqdalar.Shunga qaramay, Mingo‘rikda

o‘tkazilgan tadqiqotlar Toshkentning qadimiy shahar tarhi, rejalashtirilishi, hunarmandchiligi, savdo-sotiq aloqalari va mudofaa tizimi haqida juda qimmatli ma’lumotlarni bergan. Bir asr davomida yig‘ilgan ilmiy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, Mingo‘rik hududi nafaqat siyosiy va madaniy hayot markazi, balki iqtisodiy faoliyatning ham yetakchi o‘chog‘i bo‘lgan. Arxeologik qatlamlardan topilgan sopol idishlar, metall buyumlar, bezakli terrakotalar, misdan yasalgan maishiy buyumlar bu yerda rivojlangan hunarmandchilik maktabi mavjud bo‘lganidan dalolat beradi. Shuningdek, tilla va kumushdan yasalgan mayda zeb-ziynatlar topilgani shaharda zargarlar ustaxonalari faol bo‘lganini isbotlaydi. Topilmalar ichida uchraydigan uzuklar, ko‘zmunchoqlar va nozik ishlov berilgan taqinchoqlar Choch hududida o‘ziga xos zargarlik an’analari bo‘lganini ko‘rsatadi. Mingo‘rikdan topilgan tangalar ham shahar iqtisodiy tizimi qay darajada rivojlanganini ko‘rsatadi. Ba’zi kastlar arab dirhamlari, boshqalari Sug‘d hukmdorlari zarblari bilan o‘xshashlikka ega bo‘lgani Sharqdagi boshqa yirik savdo markazlari bilan doimiy aloqalar mavjud bo‘lganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, o‘rtadagi oltin bilan bezatilgan mis tangalar mahalliy zarbxonalarning faoliyat ko‘rsatganidan dalolat beradi.

Hududda olib borilgan qazishlar Mingo‘rik shahar madaniyati juda murakkab va ko‘p qatlamli bo‘lganini ko‘rsatadi. Arxeologlar topgan ayrim madaniy qatlamlarda hunarmandlar, qurolsozlar va to‘qimachilar ishlatgan maxsus ustaxona izlari bor. Ayniqsa, to‘qimachilikka oid uchragan buyumlar, uralgan tola qoldiqlari va to‘quv dastgohlarining metall qismlari shahar ichida iqtisodiy bozor shakllanganini ko‘rsatadi. Bunday iqtisodiy o‘choqlar odatda bog‘bonlar, chorvadorlar hamda ko‘chmanchi qabilalar bilan faol savdo olib borgan.

Mingo‘rik hududida topilgan uy-joy qoldiqlarining ichki tuzilishi ham shahar aholisi hayoti haqida muhim ma’lumot beradi. Ko‘p xonalardan iborat uylar, hovlilar, maxsus ovqat tayyorlanadigan o‘choqlar, xum qo‘yiladigan maxsus chuqurlar, devorlardagi rangli bo‘yoqlar bilan ishlangan naqshlar bu

yerda ancha badavlat kishilar yashaganini anglatadi. Ayniqsa devorlar orasidan topilgan chizmalar - qushlar, hayvonlar, geometrik naqshlar - turkiy va sug‘d san’at an’analari bilan uyg‘unlashgan uchrashuv nuqtasini ko‘rsatib beradi. Shaharda diniy hayot ham o‘ziga xos tarzda rivojlanib borgan. Qazishmalar davomida topilgan ibodatxona qoldiqlari, mehrob shaklidagi devor tizmalar va qurbongoh maydonining izlari bu yerda mahalliy e’tiqod shakllari uzoq vaqt davomida yashab kelganini tasdiqlaydi. Qurbongoh yaqinidan topilgan kul va suyak qoldiqlari qadimgi diniy marosimlar mavjud bo‘lganidan dalolat beradi. Arablar zabti davrida bu ibodatxonalar vayron qilingan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Arxeologlar tomonidan izlanilgan madaniy qatlamlar bir-biri ustiga ikki ming yillik tarixni mujassam qilgan bo‘lib, har bir bosqich o‘ziga xos shahar tizimini aks ettiradi. Shoshtepa, Konka, Ko‘ktepa, Choshtepa kabi yodgorliklar bilan solishtirganda, Mingo‘rikning alohida o‘rni shundaki - u ko‘p yillik poytaxtlik vazifasini bajargan va siyosiy hokimiyat markazi sifatida shakllangan. XIII asrga kelib qozg‘olonlar, siyosiy o‘zgarishlar va iqtisodiy tangliklar tufayli Mingo‘rik butunlay tashlab ketiladi. Shahar hayoti asta-sekin Binkat (hozirgi Eski Shahar hududi)ga ko‘chiriladi, yangi siyosiy markaz Vodiya darvozasi atrofida shakllana boshlaydi. XVIII–XIX asrlarda shaharning bu qismi o‘rikzorlar bilan qoplangani bois “Ming O‘rik” nomi paydo bo‘ladi. Bu nom avvalgi shahar xarobalari unutilganidan keyin paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, tarixiy qatlamlar ostida yotgan ulkan arxeologik ma’lumotlar bugungi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. XX asrning ikkinchi yarmida shaharni kengaytirish jarayonida Mingo‘rikning katta qismi tuproq sifatida ishlatilib yuborilgan. Shunga qaramay, topilgan sopol idishlar, nafis terrakotalar, metall qurollar, uy xo‘jaligi buyumlari va tangalar bugungi kunda Toshkentning eng qadimiy hayoti haqida eng muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Hozirda bu yodgorlikning faqat kichik qismi saqlanib qolgan bo‘lsa-da, uning ilmiy qiymati beqiyosdir. Toshkentning haqiqiy qadimiy poytaxti aynan shu yerda bo‘lganini ilmiy jihatdan inkor qilib bo‘lmaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Asqarov, A. *O‘zbekistonning qadimgi shahar madaniyati*. — Toshkent: Fan, 1992.
2. Vinnik, D. F. *Drevnie gorodishcha Tashkentskogo oazisa*. — Tashkent: Fan, 1968.
3. Gulyamov, Ya. G. *Drevniy Tashkent.* — Moskva: Nauka, 1971.
4. R. Suleymanov. *Arxeologicheskie issledovaniya v Tashkentskom oazise.* — Toshkent: Fan, 1985.
5. Sagdullaev, A., Toshkent vohasi arxeologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar to‘plami, 1–2 jildlar. — Toshkent: O‘zFA, 2000–2004.
6. Shirinov, T. *Choch davlati va uning shaharlari.* — Toshkent: Sharq, 2007.